


---

## JARAYON



Istiqlolimizning 31-yillik to'yini munosib kutib olish maqsadida joylarda keng qamrovli obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bu jabhada ta'lim sohasi vakillari ham fa'ollik ko'rsatishayotir.

So'x pedagogika kolleji xodimlari ham mazkur muassasa hududiini obodonlashtirishga bel bog'ladilar. Kollej rahbari Ixtiyor Sayfidinovning so'zlariga ko'ra, tashkil etilgan hashrda asoan texnik xodimlar ishtirok etdilar.

 - Quvonarlisi, mazkur obodonchilik hasharida kollej xodimlari ham o'z xohishlari bilan tashabbus ko'rsatib, ishtirok etdilar. Kollej hududini obodonlashtirishda barcha xodimlar hissa qo'shishdi. Istiqlol bayramini zo'r kayfiyat va xursandchilik bilan albatta, kutib olamiz, - deydi muassasa rahbari o'z so'zida.

Darhaqiqat, har birimiz eng ulug' va eng aziz bayramimiz - Istiqlolning shonli to'yiga o'zimizni salmoqli hissamizni qo'shishimiz lozim. Tuman hududlarida ushbu yo'nalishda amaliy ishlar davom etyapti.

### **So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

#### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-08-22 11:11:51